

## ERTAKLAR ORQALI BOLALARNING NUTQINI O'STIRISH

**Ikromova Nazokat O'tkir qizi**

Oriental universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Toshov Muhiddin**

Oriental universiteti "Pedagogik mahorat" fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11273775>

***Annotatsiya.** Maqolada o'qituvchilarda boshlang'ich sinf o'qish darslarida nutq o'stirishda ertaklarning o'qitish metodologiyasi, o'ziga xos xususiyatlari, sifatli ta'lim berish jarayonida nutq o'stirishga erishish orqali kommunikativ ko'nikmalar haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** tasviriy vositalar, maqollar, jonlantirish, metafora, mubolag'alar hikoya, ertak, ta'lim va tarbiya, tafakkur va notiqlik san'ati, ertak elementlari.*

## DEVELOPMENT OF SPEAKING ART BY TEACHING ARTISTIC WORKS IN TEACHERS (IN PRIMARY CLASSES)

***Abstract.** The article talks about the teaching methodology of fairy tales in primary school reading classes, its specific features, communication skills by achieving speech development in the process of quality education.*

***Key words:** figurative means, proverbs, animation, metaphor, exaggeration, story, fairy tale, education and training, art of thinking and speaking, elements of a fairy tale.*

## РАЗВИТИЕ РЕЧНОГО ИСКУССТВА ПУТЕМ ОБУЧЕНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОМУ ПРОИЗВОДСТВУ У УЧИТЕЛЕЙ (В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ)

***Аннотация.** В статье рассказывается о методике преподавания сказок в развитии речи на уроках чтения в начальной школе, ее особенностях, коммуникативных навыках путем достижения развития речи в процессе качественного образования.*

***Ключевые слова:** образные средства, пословицы, мультипликация, метафора, преувеличение, рассказ, сказка, воспитание и обучение, искусство мысли и речи, элементы сказки.*

## KIRISH

Dono xalqimiz "Ertaklar-yaxshiliklar yetaklar", deb bejiz aytishmagan. Ertaklar bolalarning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarni jo qilishda, ularning ma'naviy olamini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalarning xotirasi, diqqat-e'tibori, tafakkuri rivojlanadi. Ertaklarni tinglash til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Boladagi ayrim nutqiy kamchiliklarni hikoya va ertaklar eshitish, she'r yodlatish, shuningdek so'zlarni to'g'ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali bartaraf etish mumkin.

Ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu xislatlarni tarbiyalash, insoniy fazilatlarni targ'ib etish, ular o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish kerak.

Jumladan, hayvonlar haqidagi "Tulkining taqsimoti" ertagida ayyorlik va tilyog'lamalik tulki obrazi orqali ifodalangan. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi ota nasihati bilan boshlanadi. Botirlar

obrazida axloq va odobning yuksak namunasi odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar namoyon bo'ladi.

Tarbiyachi tomonidan ertak o'qib bo'lingach, bolalarni umumiy xulosa chiqarishga undash lozim. "Agar sen uning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'lar eding?", kabi savollar berib, erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini oshirishga yordam beradi.

Har bir ertakning o'z g'oyasi bor. "Sehrli sholg'om" ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketma-ket aytishga undab, "Kuch birlikda" degan g'oyani anglab yetishini ta'minlasa, "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumradning mehnatsevarligi ulug'lanadi. Qimmat esa dangasa, ishyoqmas sifatida gavdalanadi. Bolalar ertakni tinglash orqali qissadan hissa chiqarishga o'rgatiladi.

Shuningdek, ertaklarni mahorat bilan bolalarga o'qib berish, kichkintoy bilan his-hayajonli muloqotni o'rnatishga, sezdirmay tarbiyaviy ta'sir qilishga, atrof-muhit haqidagi bilimi va ma'lumot zaxiralarini samarali to'ldirishga imkon yaratadi.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim. Masalan, «Rostgo'y bola» (1-sinf) ertagida bola o'z rostgo'yli bilan podshoga ma'kul bo'lganligi hikoya qilingan. Ertak g'oyasiga mos xulosa esa «Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir» maqoli bilan ifodalangan. O'quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o'zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin [6].

Ertakni o'qib, mazmuni bilan tanishtirilgach, o'quvchilardan shaylanib, ro'parasida, sharbat, xayrli ish, xivchin, muhayyo so'zlarining ma'nosi so'raladi. Javoblar to'ldiriladi, umumlashtiriladi.

Ertak matni bilan ishlash jarayonida unda qo'llangan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag'alar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Ertak bilan tanishtirish:

o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;

o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hok.

Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;

Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish) Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar ko'ngil ochishni, ermakni xohlaydilar. Chunki bu narsalar ular hayoti davomida tabiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar xamma narsani o'yin va so'zlar orqali o'zlashtiradilar. Tarbiyachi bolalar bilan muloqot qilganida ularga o'z ona tillarining har tomonini ya'ni nozik taraflarini ham o'rgatib boradi.

Chunki so'z orqali bola hayoti borasida muloqot qiladi, fikrlash doirasi kengayadi va tili ravon, aniq so'zlashga moslashib boardi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar so'z, ibora va gaplarni qiziqib o'rganadilar hamda osongina eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalarning xotirasi endi shakllanib borayotgan paytda bunday mashg'ulotlar ularning hayotiga yo'l ochib beradi. Kichik yoshdagi bolalarga tarbiyachi so'zlarni o'rgatayotganida o'yinlar orqali murojaat qilish

ayni muddoa hisoblanadi. O‘yin orqali bola o‘zining lug‘at boyligini kengaytirib to‘playdi. Lekin kichik yoshdagi hamma bolalar ham o‘rganayotgan so‘zlarning ma‘nosini to‘g‘ri tushunmaydilar.

Ularni tushuntirish ota-onalar bilan tarbiyachining vazifasiga kiradi.

Qiziqarli ertak va hikoyalar bolaga yaxshi ta‘sir qiladi va yaxshi-yomonni farqlashga o‘rgatadi. Yod olingan kichik xajmdagi she‘r va qo‘shiqlar bolaning nutqini ravon, aniq va sodda qilib ifoda etishni shakllantiradi. Tarbiyachi bolalarda tabiatga mehr uyg‘otishda daraxtlar qushlar yoki boshqa narsalar xaqidagi kichik xajmdagi she‘rlarni yod oldirishi va ularning mazmunini tushuntirishlari maqsadga muvofiqdir. Qushlarning insonlarga foyda keltirishi shu kichik she‘r orqali ifadolanгани aytish zarur. She‘mi yoki qo‘shiqni aytishdan oldin ular haqidagi rangli rasmlarni ko‘rsatib o‘tish va suxbatlashish shart. Shundagina bolaning tasavvuri, hayolot olami kengayib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bitta ertakni qayta-qayta eshitishni yoqtiradilar. Shunga ko‘ra ham uni bir marta emas, bir necha marta o‘qib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda tarbiyachi: «Bolalar, ertak yoqdimi? Mazmunini tushundinglarmi? Yana bir marta o‘qib beraymi?» deb murojaat etib turishi kerak. Bolalar ertak mazmunini yuzaki tushungan bo‘lishlari mumkin. Shuning uchun dastlabki idrokni chuqurlashtirish maqsadida bolalarni ertak mazmuniga olib kirish lozim bo‘ladi. Rasm idrokni yana ham chuqurlashtiradi. Bolalar ertak tinglash paytida ko‘z oldilariga keltirishga ulgurmagani jihatlar: qahramonlarning kiyinishlari, o‘zlarini tutishlari va boshqa holatlar rasm yordamida jadal anglanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ertak asosida rasmlar chizishni ham topshirish foydali. Rasm chizish paytida bolada axborot yetishmasligi seziladi. U tarbiyachidan ba‘zi narsalarni so‘rab bilishga intiladi. Natijada ertak mazmuniga yanada chuqurroq kirib borish uchun imkoniyat paydo bo‘ladi. Shu bois ertak asosida bola tomonidan chizilgan rasmlarda axborot ko‘proq bo‘ladi. Kattalar bolalarga ertak o‘qib berish mobaynida ertak elementlari orqali ularning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirgan holda obrazli tafakkurining o‘shishiga ma‘lum darajada ta‘sir etadilar. Sekinasta bolaning o‘zi ham bu jarayonda ishtirok eta boshlaydi, ya‘ni avval rasmlarni tomosha qiladi, so‘ngra ovozga taqlid qilish orqali ertak qahramonlarining nomini aytishga, tanish jummalarni davom etgirishga harakat qiladi va, nihoyat, ertakni qayta so‘zlab beradi. Keyingi jarayonlarda u bir necha ertakni qiyoslash, taqqoslash, ertak qahramonlariga taqlid kilish va tavsif berish, mavzuli yo‘nalishda o‘zgarishlarni sezish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ertakning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, qahramonlardan biri ijobiy, ikkinchisi salbiy bo‘ladi. Asar qahramoni kuchli va jasur bo‘lsa, u atrof olamni go‘zallik bilan boyitadi.

### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida, ayniqsa, bolalarning badiiy asarlarni o‘qib, ertak aytib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida ertaklarni bolalarga yetkazishda yangi pedagogik texnologiya asosida bolalarning so‘z boyligini oshirishga, ularning nutqini o‘stirish, tafakkuri va ma‘naviyatini rivojlantirishga qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi.

## REFERENCES

1. Мирзаева Д.Ш, Курбанова З.И. Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста. Scientific progress 2 (7), 12061212
2. Z.I. Qurbonova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishdolarb vazifamiz. Ekonomika 1035-1038
3. J.Sh. Ostonov O'smirlarda koping xulq-atvor omillari namoyon etilishining o'ziga xos xususiyatlari
4. J.Sh. Ostonov, A. Abdullayev. O'smirlarda psixologik himoya va koping xulq-atvor omillari namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education 3 (4), 1540-1546
5. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 10031009
6. Jiyannuratova Gulnoz. Sotsiologiya tarixi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 466 b. / [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&citation\\_for\\_view=fdboTmYAAAAJ:W7OEmFMy1HYC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&citation_for_view=fdboTmYAAAAJ:W7OEmFMy1HYC)
7. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447
8. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон
9. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq, 1997.
10. Sherbutayevna J. G. YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGI DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO 'NALISHI SIFATIDA //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №.1
11. Sherbutayevna J. G. et al. YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH– DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFASI //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
12. 9.Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq, 1997.
13. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi, 1992.
14. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992.  
Internet kutubxona materiallari
15. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
16. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
17. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
18. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
19. [www.referat.arxiv.uz](http://www.referat.arxiv.uz)
20. [www.math.com](http://www.math.com)